



QORAQOLPOQ ADABIYOTI VA BERDAQ IJODI

Ibragimova Iroda Yo'ldosh qizi

Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti
2-pediatriya fakultetiti 209-guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7690269>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-fevral 2023 yil
Ma'qullandi: 26-fevral 2023 yil
Nashr qilindi: 28-fevral 2023 yil

KEY WORDS

adabiyot, Berdaq, ijod, o'zbek
va qoraqalpoq tili, metod.

ABSTRACT

Berdaq ijodiga murojaat, asarlari bilan o'zbek kitobxonlarini tanishtirish jarayonlari so'nggi yillarda, ayniqsa, mustaqillik davrida yanada kuchaydi. Tarjimonlar safi kengayib bordi. Bir vaqtlar ustoz shoir Mirtemir boshlab bergan an'ana izchil rivojlandi, Berdaq asarlarining yangi tarjimalarini tayyorlashga kirishildi.

E.Ochilov filologiya fanlari nomzodi, taniqli adabiyotshunos olim. Uning bir qanoti ilm bo'lsa, ikkinchi qanoti badiiy tarjimachilik desak xato emas. Hatto uning olimligidan ba'zida tarjimonlik faoliyati ustundek tuyuladi bizga. Olim Sharq mumtoz adabiyotini mukammal biladi. Tarjimalarining katta qismini Sharq adabiyotining nomdor adiblari asarlari tashkil etishi, shundan bo'lsa kerak. Berdaqning "Xalq uchun" (2021) nomli kitobi E.Ochilov tarjimasiga nashr etildi. Kitobga Berdaqning ellik to'qqiz she'ri tarjimada kiritilgan. Tarjimon tarjima uchun shoirning eng sara, xalqimiz orasida juda ommalashib ketgan she'rlarini tanlab olgan. Mumtoz Sharq shoirlari she'rlarini tarjima qilishdagi tajribalarini qo'llab E.Ochilov ijodiy mehnat qilgani har bir she'r tarjimasida ko'rinib turadi.

ASOSIY QISM

Tarjimada asl nusxa tilini bilishning o'zi yetarli emas, tarjima qilinayotgan asarning poetik ohangini, jozibasini, o'quvchi qalbiga zavq beradigan hayajonli nuqtalarini ham tarjimon his qilishi, aslyat muallifi darajasida badiiy-estetik salohiyaga ham ega bo'lishi talab etiladi. Ya'ni shoirona qalb, tafakkur kuchi ham bo'lishi darkor. Shu xislat sohibigina yaxshi tarjima asari yarata olishi mumkin. Tarjimashunoslikda bir gap aylanib yuradi. Ya'ni she'rni shoir, yozuvchini yozuvchi, dramani dramaturg tarjima qilishi kerak, "chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin" qabilida fikrlar aytiladi. Ehtimol, bu qarashlarni butunlay inkor qilisho'rinsizdir. Lekin tarjima amaliyotida bu fikrning aksi ham uchray turadi, ya'ni shoir yoki yozuvchi bo'lmaganlar ham yaxshi tarjima asarlar yaratishi mumkin ekan. Fikrimiz tasdig'iga E.Ochilovning tarjimonlik faoliyatini misol keltirmoqchimiz. E.Ochilov aslida professional shoir yoki yozuvchi emas, olim-tarjimon. Biroq uning hozirga qadar amalga oshirgan tarjima asarlari professional shoir yoki yozuvchilar qilgan tarjimalardan qolishmaydi, bellasha oladi. Yuqorida tilga olingan E.Ochilov tarjimalari fikrimizga dalil. Tarjimalarning sifati jiddiy tanqidlarga uchraganemas, ko'pchilik tomonidan ma'qullangan.

Berdaq she'rlari yaxshi o'girilgan. Asl nusxalarning ma'nosi, poetik ohangi, ifoda usullari tarjimalarda me'yorida chiqqan. "Xalq uchun" she'ri haqiqiy ma'nodagi insonparvarlikning

betakror badiiy ifodasi. She'ning bir qator bandlari aforizmlarga aylanib, xalqimizga yod bo'lib ketgani ham haqiqat. G'oyasi, badiiyati, ta'sir salmog'i ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati o'ta jozibador, hayotbaxsh bunday asarni boshqa bir tilga o'girish katta talant va mas'uliyat talab etadi. E.Ochilov she'ning bu fazilatlarini har tomonlama his qilib yaxshi o'giran¹.

Tarjimalarda ham asl nusxadan uzoqlashmaslik tamoyili saqlangan. Misralarga o'zbekona poetik jilo berilgan, asliyatdagi ba'zi so'zlar ixchamlashtirilib, ma'noni buzmagan holda qo'llanilgan.

Badiiy tarjima tajribasida qisqartirib tarjima qilish ko'p uchraydi va bu holat aksariyat hollarda e'tirozga sabab bo'ladi. E.Ochilov ayrim she'r tarjimasida boshqa bir yo'lni tanlagan. Ya'ni she'rni qisqartirish emas, balki bir vaqtlar "Xalq uchun"ni qisqartirib tarjima qilgan mutarjimlardan farqli o'laroq, qisqartirilgan bandlarni qayta tiklab, tarjima qilish yo'lini tanlaydi. Tarjimon so'zboshida: *"Berdaq tarjimada ham Berdaq bo'lib qolsin, obdan sayqal berib, uni boshqa shoirga aylantirmaylik"* degan bir g'oyani ilgari suradiki, bu fikrga qo'shilgingiz keladi.

E.Ochilov tarjimalarini o'qib shunday xulosaga kelish mumkin, u yaqin tillardan tarjimada she'rlarni erkin, ijodiy tarjima qilish tarafdori emas, *"obdan sayqal berib, uni boshqa shoirga aylantirish"*ni ma'qullamaydi. Hatto Berdaq asarlarining katta tarjimoni Mirtemir ham bu masalada biroz me'yordan chekingani haqida e'tiroz bildirib, shunday yozadi: "Mirtemir Berdaq she'rlariga ijodiy yondashib, ancha-muncha erkin tarjima qilgan, ma'nosini tushunishga qiynalgan, ma'nosini anglab olmagan misralarni o'zi to'qigani bilan almashtirgan, ba'zi bandlarni butunlay o'zgartirib yuborgan yoki tushirib qoldirgan."²

Bu fikrni aytish bilan E.Ochilov Mirtemirning Berdaq merosidan qilgan tarjimalarini aslo kamsitmaydi. Berdaq ijodi bilan o'zbek kitobxonlarini ilk marotaba tanishtirishda *"atoqli shoir va zabardast tarjimon Mirtemirning xizmatlari beqiyos, uning tarjimasida Berdaq she'rlari tilimizda nash'u namo topdi"* deb tan berib yozadiki, bu ustoz tarjimon mehnatlarining e'tirofidir.

M.Ahmad tarjimalariga ham shu yo'nalishda munosabat bildiradi, erkin ijodiylik, tushunilishi qiyin misralarni, bandlarni qisqartirishlar tarjimalarning saviyasini tushirib yuborganligi haqidagi E.Ochilov e'tirozlarida jon bor. Har holda, E.Ochilovning tarjimashunoslikka doir bu fikrlari tarjimonlar uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Tarjimon ko'p yillik yaqin tillardan qilgan tarjimalarida to'plagan tajribalari asosida shu xulosaga kelgani aniq. Olimning "tarjima" bilan "tabdil" to'g'risidagi fikrlari, ularni bir xil ma'noda tushunish, farqini anglamaslik xato ekanligini misollarda to'g'ri ko'rsatgan. "Xalq uchun" tarjima kitobi yuqorida bildirilgan fikrlarga amaliy dalildir.

To'plam E.Ochilovning yaqin tillardan tarjima qilish sohasidagi yangi dovoni, Berdaq she'riyatining yangi tarjimalari bilan o'zbek kitobxonlarini tanishtirishdagi navbatdagi ulkan yutug'i, istiqloq yillaridagi o'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari hamda tarjima san'atiga qo'shilgan munosib hissa.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytsak, Berdaq asarlarining uzoq va yaqin yillardagi o'zbek tiliga tarjimalari, ularning mualliflari faoliyati misolida o'zbek va qoraqalpoq, qoraqalpoq va o'zbek adabiy

¹ Бердақ. Халқ учун. Тошкент, 2021 й., 10-бет

² Ma'naviyat yulduzlari-Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent-1999-yil

aloqalari rivojlanib bordi, ikki adabiyot ham tarjima asarlari bilan boyib, ko'rkamlashib, rang-barang shakllarda, turfa g'oyalar va mazmun mohiyat negizida taraqqiy etdi. Bu an'ana kelajakda ham xuddi shunday davom etsa, adabiy aloqa va badiiy tarjima ishlari yanada jadallashtirilsa, adabiyotlarimiz yuksalishida tub burilishlar, yangilanishlar bo'lishiga aminmiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent-2000-yil
2. Tanglauli shig'armalari, Nokis 1956-yil
3. Tanlangan she'rlar 1958-yil T;1976
4. Qurboboyev B, Berdaq va o'zbek adabiyoti T;1986-y
5. Ma'naviyat yulduzlari-Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent- 1999-yil
6. И.Сагитов. Бердахтын творчествосты. Нукус. 1977.
7. Бердах. Танламалы шыгармалар жыгынагы. Нукус. 1977. 52-b.
8. Бердақ. Халқ учун. Тошкент, 2021 й., 10-бет

